




# Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi

Fan- O‘zbek tili  
O‘qituvchi- Kamaliddinova  
Nigora Sirajiddinovna





## REJA:



- 1 • Maqsud Shayxzodaning tarjimai holi
- 2 • “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi
- 3 • “Toshkentnoma”. Bag‘ishlov
- 4 • Maqsud Shayxzodaning fotosuratlari



# Maqsud Shayxzoda

(1908-1967)



*Do 'stlar, yaxshilarni avaylab  
saqlang!*

*«Salom» degan so 'zningsalmog 'in  
oqlang!*

*O 'lganda yuz soat yig 'lab  
turgandan Uni tirigida bir soat  
yo 'qlang!*

*Maqsud Shayxzoda*



TILAME

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Boshlang‘ich va o‘rtal ma’lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o‘qidi va 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi.





TIIAME




Миртемир ва Мақсуд Шайхзода. Тошкент, 1960

Миртемир Асарлар 2-жилд (Т.1981) || [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)


Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririylatlarida, Fanlar qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim va to umrining oxiriga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutining o'zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorladi.



1960-yilda yozgan «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasida buyuk o‘zbek astronomi va ma’rifatparvar podshosi obrazini o‘zbek adiblaridan birinchi bo‘lib yaratdi. Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir.



TILAME



TIIAME

U filologiya fanlari nomzodi va dotsent bo'lishi bilan bir qatorda buyuk shoir ham edi. Shayxzoda asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shayxzoda 1967-yili vafot etdi.

U 2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.



# Toshkentnoma

(*Lirik poemadan parchalar*)



TILAME

## Bag‘ishlov

Shaharlar boqiyidir,  
umr - o‘tkinchi,

Daryolar sobitdir,  
suylar - ko‘chkinchi.

Har kim o‘z shahrida  
qo‘ygan esdalik:

Yo bino qurishda  
katta ustalik,

Yo shirin latifa yoki  
ixtiro,

Yo daraxt, yo farzand, ko‘prik, yo  
misra,

Yo qo‘sinq, yo dori, maktab,  
sog‘chilik,

Xulosa: dunyoda biron  
yaxshilik...




Bir vaqtlar men senga  
shahrimni maqtab

Qilarkan ta'rifin, sen  
biroz to'xtab,

«Shunchalar bormikan?»  
deb gumon qilding,

«Ko'rganda aytamiz!»  
deb imo qilding.



Va aytding -  
darvoqe, ko'rgandan  
keyin:

«Maqtoving oz  
ekan, soz ekan  
uying!»

Qomatga munosib  
bo'lsin deb libos,  
Shahrimga dildagi  
muhabbat, ixlos



TILAME



TIIAME

Dostonga quyilsin degandim  
u choq,  
  
Kechikib yozganim  
kechirgin, o'rtoq!  
  
Bu yerda turganlar, yoki ko'rganlar,  
Yoki ko'rayin deb istab turganlar,  
  
Yoki Toshkentimning shaklin  
so'rganlar,  
  
Naqshini dilida olib  
yurganlar...  
  
Sizga bu taronam - kuyim  
armug'on,  
  
Nasr - og'ir qadam, nazm -  
chopog'on.





## Lug‘at

boqiy — вечный

sobit — постоянный,

стойкий

ko‘chkinchi – бродячий

ta’rif - описание

darvoqe — между

прочим, кстати

qomat— стан

tarona—напев

armug‘on— дар



TILAME


## She‘r yuzasidan savollar:

1. «Dunyoda biron yaxshilik» deb yozuvchi nimani nazarda tutgan?
2. «Maqtoving oz ekan, soz ekan uying» misrasini izohlang.
3. Yozuvchi nimani «kechikib yozdim», deb uzr so‘raydi?
4. Shoir kimlar uchun kuyini armug‘on qiladi?



TILAME





TIAME



TIAME





TIIAME





TILAME



TILAME





**Uyga vazifa.** Maqsud Shayxzoda haqida so‘zlab bering, she’rlarini yod oling.



E‘tiboringiz uchun  
rahmat!